

**MAKTABGACHA TA'LI TASHKILOTLARIDA "BOLA HUQUQLARI
TO'GRISIDAGI KONVENSIYA" DAN FOYDALANISH****Esonova Malohat Akilovna****Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, dotsent****esmaak1961@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7757880>**

Annotatsiya: Maqolada Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya inson huquqlari sohasidagi eng muhim hujjatlardan biridir. Hozirgi kunda bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari to'liq amalga oshirilishini ta'minlash butun dunyoda davlatlarning majburiyatlariga aylandi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya esa bunga to'liq asos bo'la olishi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: konvensiya, deklaratsiya, ratifikatsiya, ta'lim, bola huquqlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj.

MAQOLA MATNI. Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo'yicha juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada tegishli huquqiy baza shakllangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarda o'z ifodasini topgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya inson huquqlari sohasidagi eng muhim hujjatlardan biridir. Hozirgi kunda bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari to'liq amalga oshirilishini ta'minlash butun dunyoda davlatlarning majburiyatlariga aylandi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya esa bunga to'liq asos bo'la oladi.

Ma'lumki, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani yaratish ehtiyoji 1959-yil bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya qabul qilingandan so'ng paydo bo'lgan. Biroq uni tayyorlash jarayoni ko'p vaqtni talab qildi. 1979-yil Xalqaro bolalar yilida jahonning turli mamlakatlari hukumatlari tomonidan tavsiya qilingan fikrlar bo'yicha faoliyat olib boruvchi muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuzilib, ushbu ishchi guruh 10 yil davomida muzokaralar olib bordi. Nihoyat 1989-yil 20 -noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi.

Ushbu kundan e'tiboran, bola huquqlari himoyasi kafolati butun dunyoda ta'minlandi, uni himoya qilish borasida xalqaro mexanizm vujudga keldi. Konvensiya mubolag'asiz bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari mustahkamlangan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini qat'iy bajarishlari shartligi belgilandi. Konvensiya umumiy me'yorlarni joriy qilib, unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirralari aks etgan. Har bir davlat bu me'yorlarning bajarilishiga o'ziga xos milliy xususiyatlarini nazarga olish huquq va imkoniyatiga ega.

Ilgari bola haqida g'amxo'rlik u himoyaga muhtoj bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilardi. Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi konsepsiya belgilandi. Unda ta'kidlanishicha, g'amxo'rlik va himoya bu — muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konvensiya kuchga kirishi bilan, u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat'iy belgilangan majmuaga aylandi.

Konvensiyada ilk bor bola tushunchasi ochib berildi, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi, hujjatda shafqatsiz qiynoq va qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi nazarda tutilgan. To'rtinchidan, unda bolalarni ba'zi bir salbiy hodisalar (giyohvandlik va ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, bolalarni sotish va g'ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish) kabi ta'sirlardan himoya qilish masalalari ham alohida qayd etilgan. Koventsiyada shuningdek, bola yoki o'smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e'tirof etilgan.

Mazkur xalqaro hujjat bola hayoti bilan bog'liq 54-moddani o'z ichiga olgan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir mamlakat o'z milliy qonunchiligini uning qoidalariga muvofiq qayta ko'rib chiqishlari lozim.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki-yillaridanoq bola huquqlarini himoya qilish tizimini bosqichma bosqich isloh etish, bu sohadagi xalqaro me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston tomonidan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilinishi va ushbu xalqaro hujjatni milliy qonunchiligimizga moslashtirish yuzasidan 2008-yil 7-yanvarda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi yuqoridagi ezgu ishlarga qonuniy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur Konvensiya respublikamizda bolalar huquqlariga oid milliy qonunchilikning mustahkam bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. BMTning Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari, 1985-yil) hamda BMTning Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari (Ar-Riyod bosh tamoyillari, 1990-yil) shular jumlasidandir.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qonun mamlakatimizda yashayotgan har bir bolaning huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur qonunda bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, oila muhiti, mulkka egalik qilish, mehnat qilish, ta'lim olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy himoyalaniish kabi huquqlari kafolatlari aniq belgilab qo'yilgan. Zero, fuqarolik jamiyati bolalarning ulg'ayishi, himoyalaniishi va jamiyat hayotida ishtirok etishi, ijtimoiy ta'minot xizmatlari sifatli bo'lishini ta'minlashda qudratli kuch bo'la oladi.

Mazkur yo'nalishlar ijrosiga qaratilgan ishlarning uzviy va tizimli ravishda olib borilayotgani, albatta, soha rivojida, pirovardida millat kelajagini asrashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989) bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida muhim rivojlanishga aylandi. Bu 54 moddadan iborat huquqiy hujjat. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi nafaqat yuqori darajadagi xalqaro huquqiy hujjat, balki katta psixologik va pedagogik ahamiyatga ega hujjatdir. Konvensiya har bir bola uchun irqidan, rangidan, jinsidan, tilidan, dinidan, siyosiy yoki boshqa qarashlaridan, milliy, etnik va ijtimoiy kelib chikishidan qat'i nazar, quyidagilarga qonuniy huquqni tan oladi: tarbiyalash; rivojlanish; himoya qilish; jamiyat hayotida faol ishtirok etish.

Konvensiya bolaning huquqlarini ota-onalarning va bolalar hayoti, ularning rivojlanishi va himoyasi uchun mas'ul bo'lgan boshqa shaxslarning huquqlari va majburiyatlari bilan bog'laydi va ularning hozirgi va kelajagiga ta'sir qiladigan qarorlarda ishtirok etish huquqini beradi. Alohida qayd etish kerakki, aholida bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan quyidagi dasturiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Har-yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida yoshlar muammosi doimo diqqat marqazida bo'lmoqda. Ayniqsa,, 2008-yilni "Yoshlar-yili", 2010-yilni "Barkamol avlod-yili", 2014-yilni "Sog'lom bola-yili" deb e'lon qilinishi bolalar, yoshlar va ularning tarbiyasi davlat siyosatining bosh masalasi ekanligini ko'rsatib berdi. Ayniqsa,, bu borada mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan turli tadbirlar yoshlarning huquqiy madaniyatini, ularning huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo'nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirishda, quyidagilarga e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, bola huquqlariga oid ta'lim va tarbiyaning nazariy jihatlarini kuchaytirish bilan bir qatorda, uning amaliy samaradorligini yanada oshirish;

ikkinchidan, bolalar ta'lim va tarbiyasini amalga oshiruvchi tashkilotlar o'quv dasturlarida bola huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro normalarga, umuminsoniy qadriyatlarga, ilg'or horijiy tajribaga va albatta, mamlakatda tarixan shakllangan milliy an'analarga, qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish;

uchinchidan, bola huquqlarini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini oshirish;

to'rtinchidan, bola huquqlariga oid tadqiqotchilikni, ayniqsa,, ularning o'zlarining hamda aholining bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy va sotsiologik tadqiqotlarni yanada kuchaytirish;

beshinchidan, bola huquqlari borasida ta'lim tashkilotlari bilan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan mahallalar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hamkorlikka erishish;

oltinchidan, OAVlarining bolalar va yoshlarning huquqiy tarbiya sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirish. Alohida qayd etish kerakki, mamlakat parlamenti tomonidan qator xalqaro hujjatlar qonun yo'li bilan ratifikatsiya qilindiki, bu xalqaro hujjatlar ham bola huquqlari bo'yicha milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismiga aylandi. Shu bilan bir qatorda, mazkur davr

bola huquqlarini amalga oshirishning turli sohalariga oid qator Prezident farmoyishlari va hukumat qarorlari ham qabul qilindi. Ularga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi 2001-yil 4-yanvar dagi F-1322-sonli Farmoyishini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2004-yil 29-avgustdagi PF-3481-son Farmonini; - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2004-yil 29-avgustdagi 410-son qarorini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to'g'risida" 2004-yil 7-sentabrdagi 419-son qarorini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2 -noyabrdagi "Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida "Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv adabiyotlari nashr etish tizimini takomillashtirish" loyihasining ikkinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 513-sonli Qarorini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 225-sonli Qarori va mazkur Qarorga ilovada keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida"gi Nizomni misol qilib keltirish mumkin.

Sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta'minlash, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini 196 amaliyotga keng joriy etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, bolalar, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

- "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning asosiy tamoyillari.

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya rivojlanishning turli bosqichlarida bolalar farovonligi mezonlarini aniqlab beruvchi yagona xalqaro hujjat, shuningdek, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini bajarishlari qat'iy belgilangan rasmiy huquqiy dasturdir.

Konvensiya umumiy me'yorlarni joriy qilishiga qarmasdan, unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirralari aks etgan. Har bir davlat bu me'yorlarning bajarilishiga o'ziga xos milliy xususiyatlarini nazarga olish huquq va imkoniyatiga ega.

- Birinchidan, Konvensiyada ilk bor bola tushunchasi huquq subyekti sifatida tan olingan. Bu huquq sub'ektiga bolalardan tashqari, voyaga yetmaganlar ham kiradi.

- Ikkinchidan, Konvensiya voyaga yetmaganlarning xalqaro huquqiy maqomini shakllantirdi. Shunga ko'ra, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi.
- Uchinchidan, ushbu hujjatda shafqatsiz qiynoq va qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'lgan, shuning-dek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi nazarda tutilgan.
- To'rtinchidan, unda bolalarni ba'zi bir salbiy hodisalar (giyohvand-lik va ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, bolalarni sotish va g'ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish) kabi ta'sirlardan himoya qilish masalalari ham alohida qayd etilgan.
- Beshinchidan, bola yoki o'smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e'tirof etilgan.

Ilgari bola haqida g'amxo'rlik u himoyaga muhtoj bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilar edi. Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi konsepsiya belgilandi. Unda ta'kidlanishicha, g'amxo'rlik va himoya bu — muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konvensiya kuchga kirishi bilan, u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat'iy belgilangan majmuaga aylandi.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.
- 4."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
- 5.O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepiyasi. Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.
- 6.Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2022
- 7.Abdullayev A. Jismoniy tarbiya vositalari. O'quv qo'llanma. Fargona.
- 8.Abdumalikov R., Yunusev T.T. va boshlalar. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ta'limining rivojlanishi", metodik tavsiyanoma. T., O'zDJTI,1992.

9. Arakchaa P.K. Istoki ekologicheskogo vospitaniya Tekst: ucheb.-metod, posobie / P. K. Arakchaa. Kizil : Tuvn. kn. izd-vo, 2004. - 264 s.

10. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "Problems with the social attitude of the individual." Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

11. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Development of pedagogical activities with preschool children in need of inclusive education." Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

12. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya mixaylovna burdina. "Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in Uzbekistan." International academic research journal impact factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.

13. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Problems of development of creative abilities in preschoolers." International journal of early childhood special education 14.7 (2022).

14. Raximova, F. M. "Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.